“TASDIQLAYMAN”
Toshkent davlat tibbiyot universiteti
rektori Sh.A. Boymuradov
“___” _____ 2026 yil

Toshkent davlat tibbiyot universiteti Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixologi, psixologlari hamda xotin-qizlar psixologining lavozim yo‘riqnomasi

Ijtimoiy- psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixologi lavozim yo‘riqnomasi

1. UMUMIY QOIDALAR

Mazkur Toshkent davlat tibbiyot universiteti xodimlarining lavozim yo'riqnomasi (keyingi o'rinlarda - lavozim yo'riqnomasi) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 4-oktyabrdagi "Xizmatchilarning asosiy lavozimlari va ishchilar kasblari klassifikatorini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 795-son qarori muvofiq Toshkent davlat tibbiyot universiteti (keyingi o'rinlarda - Universitet) xodimlari o'rtasida mehnat taqsimotini, ularning lavozim majburiyatlarini, ushbu lavozimga kadrlarni tanlash va joy-joyiga qo'yilishi uchun me'yorlarini tartibga soladi, shuningdek, ushbu lavozimlarda ish yuritayotgan xodimlardan mutaxassisligi va malakasiga qarab to'g'ri foydalanishni nazorat qilish va ularni attestatsiyadan o'tkazishda asos bo‘lib xizmat qiladi.

1.1. Markaz bosh psixologi universitet rektori buyrug‘i asosida lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

1.2. Bosh psixolog o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish markazi nizomiga hamda mazkur yo‘riqnomaga amal qiladi.

1.3. Bosh psixolog bevosita universitet rektoriga bo‘ysunadi.

1.4 Bo‘lim boshlig'i ish joyida bo‘lmaganda (mehnat ta’ tili, xizmat safari, mehnatga layoqatsizligi tufayli va boshqa sabablarga ko‘ra) uning xizmat vazifalarini rektor tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadigan xodim bajaradi.

2. .Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixolog lavozimi vazifalari

2.1. Talabalar va xodimlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

2.2. Psixologik profilaktika, diagnostika, korreksiya va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

2.3. Talabalar o‘rtasida deviant xulq-atvor, addiktiv xatti-harakatlar, erta turmush, stress va boshqa muammolar bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.

2.4. Psixologik suhbatlar, treninglar, seminar va davra suhbatlarini rejalashtirish va o‘tkazish.

2.5. Talabalar turar joylari hamda fakultetlarda psixologik muhitni o‘rganish.

2.6. Zarurat bo‘lganda individual psixologik maslahatlar tashkil etish.

2.7. Markaz faoliyati bo‘yicha hisobotlarni tayyorlash va rektorga taqdim etish.

2.8. Maxfiylik va etik me’yorlarga rioya qilishni ta’minlash.

3. Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixolog lavozimi uchun malaka talablari: Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 431-sonli buyrug‘ining 4-ilovasiga muvofiq

Oliy toifadagi psixolog - ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan, psixolog sifatida kamida 5 yil ta’lim sohasida ish stajiga ega bo‘lishi lozim;

1-toifadagi psixolog - ixtisosligi bo‘yicha magistr, psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha kamida 1 yil ish staji bo‘lishi lozim;

2-toifadagi psixolog - psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, psixolog sifatida kamida 3 yil ish staji bo‘lishi lozim;

Oliy ta’lim psixologi o‘z ustida ishlashi va tajriba almashishi uchun har 3 yilda malaka oshirib boradi.

4. Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixologining huquqlari:

4.1. Universitetning tarkibiy bo‘linmalaridan zarur ma’lumot va hujjatlarni belgilangan tartibda olish;

4.2. bo‘lim faoliyatini takomillashtirish, xonasining belgilangan talablar asosida jihozlanishi, moddiy-texnik uskunalar, bo‘lim faoliyatiga oid hujjat va qog‘oz - blankalarning yangilanishini ta’minlash uchun universitet rahbariyatiga murojaat etish;

4.3. lavozim vazifalarini bajarishda yuqori malakasi va bilimi bilan ajralib turadigan, shuningdek rahbariyatning muhim ahamiyatiga ega bo‘lgan topshiriqlarni o‘z vaqtida ijro etgan bo‘lim xodimlarini rag‘batlantirish bo‘yicha rahbariyatga takliflar kiritish;

4.4. mehnat va ijro intizomini buzgan o‘ziga bo‘ysunuvchi xodimlarni intizomiy javobgarlikka tortish haqida rahbariyatga takliflar kiritish.

5. .Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixologining javobgarligi

5.1. Markaz faoliyatining samaradorligi uchun,

5.2. Hujjatlar va hisobotlarning to‘g‘riligini ta’minlash uchun,

5.3. Talabalar va xodimlar bilan ishlashda etik me’yorlarga rioya etish uchun javobgar.

6. Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi bosh psixologi bilishi lozim

6. 1. Faoliyatiga tegishli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida" 2018-yil 7-dekabrdagi PF-5590-son Farmoni va oliy ta'lim tizimiga oid boshqa farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 12-son qaroriga muvofiq ijro intizomini, Universitet Ustavi, Kengash qarorlari, rektor buyruqlari, bo'lim nizomi, Ichki tartib qoidalari va boshqa lakol normativ xujjatlar hamda ushbu yo'riqnomani;

6.2. hujjatlarni tayyorlashda orfografiya qoidalari va tinish belgilarni, hujjatlarni chop etish vaqtida materialni joylashtirish tartibini, namunaviy

shakllardan foydalangan holda ishga oid xatlarni chop etish qoidalarini o'zlashtirgan bo'lish;

6.3.zamonaviy kompyuter texnologiyalari, dasturiy ta'minotlari va soha yangiliklarini bilishi zarur.

7. Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi yetakchi mutaxassis-psixolog lavozimi vazifalari

7.1. Talabalar va xodimlarga ijtimoiy-psixologik yordam ko‘rsatish ishlarini tashkil etish va muvofiqlashtirish.

7.2. Psixologik profilaktika, diagnostika, korreksiya va maslahat xizmatlarini yo‘lga qo‘yish.

7.3. Talabalar o‘rtasida deviant xulq-atvor, addiktiv xatti-harakatlar, erta turmush, stress va boshqa muammolar bo‘yicha targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish.

7.4. Psixologik suhbatlar, treninglar, seminar va davra suhbatlarini rejalashtirish va o‘tkazish.

7.5. Talabalar turar joylari hamda fakultetlarda psixologik muhitni o‘rganish.

7.6. Zarurat bo‘lganda individual psixologik maslahatlar tashkil etish.

7.7. Maxfiylik va etik me’yorlarga rioya qilishni ta’minlash.

8. Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi yetakchi mutaxassis-psixologi (xotin-qizlar psixologi) lavozimi uchun malaka talablari: Oliy ta’lim fan va innovatsiyalar vazirligining 2025-yil 7-noyabrdagi 431-sonli buyrug‘ining 4-ilovasiga muvofiq

Oliy toifadagi psixolog - ixtisosligi bo‘yicha falsafa doktori (PhD) yoki fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga ega bo‘lgan, psixolog sifatida kamida 5 yil ta’lim sohasida ish stajiga ega bo‘lishi lozim;

1-toifadagi psixolog - ixtisosligi bo‘yicha magistr, psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha kamida 1 yil ish staji bo‘lishi lozim;

2-toifadagi psixolog - psixologiya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr yoki diplomli mutaxassis, psixolog sifatida kamida 3 yil ish staji bo‘lishi lozim;

Oliy ta’lim psixologi o‘z ustida ishlashi va tajriba almashishi uchun har 3 yilda malaka oshirib boradi.

9. Ijtimoiy -psixologik yordam ko‘rsatish markazi yetakchi mutaxassis-psixolog huquqlari

9.1.talabalar faoliyatini kuzatish maqsadida darslar va darsdan tashqaridagi ishlarda ishtirok etish;

9.2. kasbiy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda o‘z kasbiy malakasini oshirish;

9.3. mehnatni tashkil etishning qulay shart-sharoitlariga ega bo‘lish;

9.4. kasbiy majburiyatlarni muvaffaqiyatli ado etish uchun yuqori tashkilotlardan, zarur shart-sharoitlar yaratishini talab qiladi;

9.5. yetakchi mutaxassis- psixologning mehnat ta’tili muddati barcha universitet professor-o’qituvchilari bilan barobardir.

10. YAKUNIY QOIDALAR

Universitet xodimlari ushbu yo'riqnoma bilan yuklatilgan xizmat vazifalarni bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda, faoliyati davomida qonunbuzarlikka yo‘l qo‘yganda, Universitetga moddiy zarar yetkazganda, Universitet Ustavi va Ichki tartib qoidalarni buzganda amaldagi qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.

Xodimlar o‘z huquqlarini buzilgan deb hisoblaganda mustaqil ravishda yoki kasaba uyushmasi qo'mitasi ishtirokida ish beruvchiga yozma yoki og‘zaki murojaat etishga haqlidir.

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy-psixologik yordam
ko‘rsatish markazi bosh psixologi: **R.B.Polvanov**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
ijtimoiy -psixologik yordam
ko‘rsatish markazi yetakchi mutaxassis psixologi: **G.G.Umirova**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy- psixologik yordam
ko‘rsatish markazi yetakchi mutaxassis psixologi: **Sh.M.Tashkulova**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy- psixologik yordam
ko‘rsatish markazi yetakchi mutaxassis psixologi: **E.M.Safarova**

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy- psixologik yordam
ko'rsatish markazi yetakchi mutaxassis psixologi: **G.S.Djumanova**
Sh.M.Tashkulova

Toshkent davlat tibbiyot universiteti
Ijtimoiy- psixologik yordam
ko'rsatish markazi yetakchi mutaxassis psixologi:
(xotin-qizlar psixologi) **G.M.Soiabnazarova**